

## TA'LIM TEKNOLOGIYASINI SAMARALI QO'LLASHNING NAZARIY JIHATLARI

**Ibragimov Vaxobjon**

*o'qituvchi,*

*Farg'onan davlat universiteti,*

*O'zbekiston, Farg'ona shahar*

**Annotatsiya:** *Hozirgi vaqtida zamonaviy jamiyatda ilmiy-texnik taraqqiyot va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning dinamikasi tobora aniqroq namoyon bo'lmoqda. Bunga sabab esa pandemiya tufayli barcha sohalar masofaviy ishlash rejimiga o'tkanligi bilan ifodalananadi. Bunday ishlash jarayoni iqtisodiy va ma'rifiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.*

*O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgandir.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lif, pedagogik mahorat, ta'lif texnologiyasi, innovatsiya, qobiliyat, modernizatsiya.*

**Аннотация:** В настоящее время в современном обществе все отчетливее проявляется динамика научно-технического прогресса и социально-экономических изменений. Причина в том, что из-за пандемии все отрасли перешли на удаленный режим работы. Такой рабочий процесс считается экономически и образовательно актуальным.

Целью реформ, проводимых в Узбекистане во всех сферах общественной жизни, является обеспечение безопасности и благополучия человека и его интересов, а также воспитание гармоничного поколения.

**Ключевые слова:** *образование, педагогическое мастерство, образовательные технологии, инновации, способности, модернизация.*

**Abstract:** *At present, the dynamics of scientific and technological progress and socio-economic changes are becoming more and more evident in modern society. The reason is that due to the pandemic, all industries have switched to remote operation. Such a workflow is considered economically and educationally relevant.*

*The purpose of the reforms carried out in Uzbekistan in all spheres of public life is to ensure the safety and well-being of a person and his interests, as well as the upbringing of a harmonious generation.*

**Keywords:** *education, pedagogical skills, educational technologies, innovations, abilities, modernization.*

O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘li asrlarga arzigelik mazmun va mohiyat kasb etmoqda. Fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyotining bugungi darajasi bilan bo‘lajak o‘kituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni orasidagi mavjud nomuvofiqlikni bartaraf etish zarurati oliy ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining yetarli joriy etilmaganligi sababli yanada yuqori dolzarblik kasb etmoqda.

Fan za texnikaning mavjud yangiliklari ularni o‘quv dasturlari va darsliklari mazmuniga jadal kiritishni talab etadi va bu orqali talabalarning zamonaviy bilimlarini shakllantirishga zamin yaratadi. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalarining joriy etilishi va turli metodik yondashuvlar esa, o‘z navbatida, talabalarda ko‘nlab fundamental tutmunchalarni nisbatan yengil va mustahkam shakllanishiga qulay sharoit yaratadi.

Ma’lumki, fan va texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko‘nlab ilmiy bilimlar, tushuncha, tasavvurlar va axborotlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tomondan fan va texnikaning yangi bo‘limlari va sohalarining shakllanishini ta’minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida hukmron bo‘lgan chegaralarni buzib, integratsiya jarayonini jadallashtirishni talab etadi.

Ta’lim tizimini takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashda ta’lim texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir. Kadrlar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talablarini inobatga olgan holda optimallashtirish.

Ta’lim texnologiyasi — bu texnologiyani ta’limga ijobiy tarzda integratsiyalash jarayoni bo‘lib, u yanada xilma-xil ta’lim muhitini va o‘quvchilarning texnologiyadan foydalanishni, shuningdek, umumiyl topshiriqlarini o‘rganish usulini ta’minlaydi. Shunga ko‘ra, ta’lim texnologiyasining intellektual va texnik rivojlanishini tavsiflashning bir nechta alohida jihatlari mavjud:

- Ta’lim texnologiyasi o‘rganishga ta’lim yondashuvlari nazariyasi va amaliyoti sifatida .

Ta'lim texnologiyasi texnologik vositalar va ommaviy axborot vositalari sifatida, masalan, bilimlarni uzatish, uni rivojlantirish va almashishda yordam beradigan ommaviy onlayn kurslar.

Ta'lim texnologiyasining o'zi ta'lim predmeti sifatida; bunday kurslar "kompyuter tadqiqotlari" yoki "axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)" deb nomlanishi mumkin.

"Ta'lim texnologiyalarning ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarini falsafiy jihatdan to'g'ri yo'nalishda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi"[1, 30].

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish. e'tibor kundan-kunga kuchayib bormokda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Ma'lumki, ta'lim jarayoni ta'lim texnologiyasining asosini, yadrosini tashkil etadi hamda ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'quvchi, ta'lim shakli, metod, vositalari va ta'lim beruvchi kabi unsurlardan iborat tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tarkibiy unsurlar o'zaro birlik va aloqadorlikda ta'lim jarayonining umumiyligi yoritishga xizmat qiladi.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilar dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Ta'lim texnologiyasining funktsional tuzilmasi bevosita ta'lim jarayonining mohiyatini to'laqonli yoritishga xizmat qiladi. Ya'ni, ushbu tuzilma o'zida ta'lim

jarayonining umumiy ko'rinishi (tashkiliy shakli va ichki mohiyati), obrazini ifoda etadi.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi - bu insonning turli sohalarda maqsadli mustaqil faoliyat asosida intellektual va axloqiy rivojlanishidir. Bunda 3 ta asosiy vazifaga e'tibor qaratiladi:

1. Ta'lim tizimini isloh etish.
2. Mustaqil faoliyat tamoyilini ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyili sifatida e'tirof qilish.
3. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish.

Zamonaviy insonning o'qish jarayoni faqat borcha, maktab, litsey yoki kollej, oliy o'quv yurti bilan tugamaydi. Inson butun umri davomida ta'lim olishi zarur, ya'ni ta'lim uzlusiz bo'lishi kerak. Demak, uzlusiz ta'lim - davr talabidir. Shuning uchun ham zamonaviy axborot texnologiyalariga bo'lgan ehtiyoj shakllandi.

XXI asr axborotlashtirish asrida ta'lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta'lim muassasasida:

- o'qitish va o'qish jarayonining;
- ta'lim muassasasi boshqarilishining;
- ta'lim muassasasi bo'linmalarining;
- ta'lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi.

Ta'lim texnologiyasining funktsional tuzilmasini tasvir orqali quyidagicha aks ettirishga harakat qildik. Ijtimoiy raqobat mavjud bo'lgan sharoitda mo'tadil faoliyat yurtish, raqobatga nisbatan ishchanlik immunitetini hosil qilish manfaatlar to'qnashuviga «omon» qolish, yuqori mavqeiga ega bo'lish uchun imkoniyat yaratadi. Shu bois o'quvchilarda ta'lim olish, nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli yondashuv hissi qaror topmoqda.

Bu esa ularda ta'lim olishga bo'lgan rag'batni hosil qilmoqda. Endilikda ta'lim olish, muayyan kasb-hunar yoki mutaxassislik ma'lumotlarini egallash, bu borada ma'lum ko'nikma va malakalarni shakllantirish hayotiy ehtiyojga aylanmoqda. Ta'lim olishga bo'lgan rag'bat va uning mazmuni ta'lim jarayonining muvaffaqiyatining garovi, kafolati bo'la oladi.

Endilikda o'quvchi o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborot (bilim)larni qabul qilmaydi. Balki ta'lim beruvchining yo'llanmasi, ko'rsatmasiga muvofiq tavsiya etilgan o'quv manbalari bilan mustaqil ravishda tanishish orqali nazariy bilimlarni o'zlashtiradi, o'qituvchining nazorati ostida amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qiladi. O'quvchi mustaqil faoliyat yuritish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish asosida o'zida fikrni ilgari surish, dalillar keltirish, o'z-

fikrini himoya qilish layoqatini tarbiyalay olishi, o‘z-o‘zini tanqid qilish, o‘z-o‘zini baholash sifatlarini qaror toptira olishi talab etiladi. Davr talabi o‘quvchini ta’lim jarayonining sust tinglovchisi bo‘lishdan faol ishtirokchisiga aylantirishni taqozo etmoqda.

O‘quvchining faoliyat mazmunini to‘laqonli yoritilishida ta’lim shakli, metod ya vositalarining ahamiyati katta. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchining samarali faoliyat ko‘rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o‘laroq, ta’lim texnologiyasi tinglovchilar faoliyatiga nisbatan yo‘naltirilgan bo‘lib, u tinglovchilarning shaxsiy hamda o‘qituvchi bilan bирgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim texnologiyasining samarali jihat – ta’lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishni ta’minkaydi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Z.F.Sharopova. Ta’lim texnologiyalari. Darslik. Toshkent, 2019.
2. R.Mavlonova, O.Turayeva, K.Xolikberdiyev. Pedagogika. Darslik. Toshkent, 2001.
3. Karimova, G. (2022). CORRUPTION: ITS HISTORICAL ROOTS AND WAYS TO COMBAT IT. Research Focus, 1(4), 267-272.
4. Каримова, Г. (2022). МАҶНАВИЯТ ВА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ. Экономика и социум, (3-2 (94)), 612-615.
5. Kozixodjaev, J. X. (2023). OLIY TA’LIM TIZIMIDA TA’LIM BILAN TARBIYANING MUTANOSIBLIGINI TA’MINLASH BORASIDAGI MUAMMOLAR. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(18), 19-23.
6. Каримова, С., & Каримова, Г. (2018). СОВРЕМЕННЫЕ ОБЩЕСТВА, КАК МИРОВАЯ СИСТЕМА. In Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) (pp. 1372-1374).
7. Umatkulov, T. (2023). The Importance of the "Five Important Initiatives" in the Development of Society and the Formation of Civic Positioning Among Young People. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(3), 51-55.
8. Gulnoza, K., Gulzodabegim, K., & Mokhinur, Z. (2022). THEORETICAL AND PRACTICAL BASIS OF THE SCIENCE OF SOCIAL ANTHROPOLOGY. Research Focus, 1(3), 88-93.

9. Zakirova, D. S. (2022). TALABALARDA MILLATLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(6), 439-448.
10. Saidolimovna, Z. D. (2019). THE FORMATION OF INTERETHNIC COMMUNICATION CULTURE OF THE YOUTH: METHODOLOGICAL ANALYSIS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
11. Abdulazizova, N. A., & Zakirova, D. S. (2016). VALUE OF DISTANCE LEARNING IN CONTINUING EDUCATION. Ученый XXI века, (12), 42-45.
12. Pulatova, N., & Xasanov, N. (2020). THE ROLE OF ENVIRONMENTAL EDUCATION IN MODERN EDUCATION. Мировая наука, (6 (39)), 60-62.
13. Pulatova, N. (2018). PROSPECTS DEVELOPMENT OF EDUCATION SYSTEM. Экономика и социум, (10 (53)), 65-67.
14. Egamberdieva, T. A., & Pulatova, N. R. (2020). METHODS OF USING AVESTO TEACHING IN THE FORMATION OF ETHNOECOLOGICAL CULTURE IN YOUNG PEOPLE. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(6), 271-277.
15. Мамасолиев, Р. А. (2022, January). Немис Ба Ўзбек Тилларида “Муаллим” Концептини Ифодаловчи Воситалар Ҳакида Қисқача Тўхталиш. In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 2, No. 1).
16. Adxamjonovich, M. R., & Ibroximovich, S. R. (2022). Lexico-Thematic and Linguoculturological Characteristics of the Concept Teacher. International Journal of Formal Education, 1(10), 106-110.
17. Mamasoliyev, R. (2020). Modern Innovative Directions Of Pedagogical Education Development. Теория и практика современной науки, (6), 16-18.
18. Мамасолиев, Р. А. (2021). Communicative And Pragmatic Features Of The Teacher Concept In German And Uzbek Languages. Международный Журнал Языка, Образования, Перевода, 4(2).
19. Mamasoliev, R. A. (2022). Analysis Of Synonyms For The Concept Of Teacher In German And Uzbek. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2022(1), 194-203.
20. Pirmatovich, R. R., & Yusupovich, I. V. (2022). Comparative Functional Analysis of Synonyms in Theeenglish. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(1), 116-118.

21. Ибрагимов, В. (2022). ИЖТИМОЙ Ё ФАОЛЛИК ВА ТОЛЕРАНТЛИКНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ. Research Focus, 1(4), 351-354.
22. Vaxobjon, I. (2022). BARKAMOL AVLODNI MAFKURAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING MUHIM JIHATLARI. Research Focus, 1(4), 328-332.
23. Nuritdinova, S. X., & Ibragimov, V. Y. (2022). Problems of Grammatical Interference in Teaching German Language to Uzbek Students. International Journal of Formal Education, 1(10), 163-168.
24. Ibragimov, V. (2022). METHODOLOGY OF STUDYING FOREIGN LANGUAGE LESSONS BY THE METHOD OF EXTRACURRICULAR PROJECT WORK ADVANTAGES. Oriental Journal of Social Sciences, 2(06), 60-65.
25. Rahberdi, R., & Yusupovich, I. V. (2022). Problems In Learning English In Different Classes In Secondary Schools. Thematics Journal of English Language Teaching, 6(1).